

FOLKLOR QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich**

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi

1- bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

BuxDPI "Musiq va tasviriy san'at" kafedrası dotsenti(PhD)

Musiq ta'limini xalqimizning milliy merosi, an'ana va urf- odatlari bilan uzviy uyg'unlikda bog'lab tashkil etish zamonamizning muhim talablaridan biridir. Chunki musiqa ta'limi jarayonini folklor va xalq qo'shiqlari, dostonlar, lapar kabi milliy meros durdonalaridan foydalanib tashkil etish xalqimizning uzoq o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan an'analari, urf- odat va milliy madaniyat namunalarini saqlab qolish hamda boyitishga da'vat etadi. Shu bilan bir qatorda, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida yoshlarni boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltiradi, yangi tarbiya tizimining amalga oshirib borish va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi.

Bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ta'lim-tarbiya beruvchi muassasalar zimmasiga muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalar sirrasiga kiruvchi ta'lim-tarbiya masalalariga misol tariqasida – musiqa ta'limida folklor qo'shiqlarini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy meros haqida kengroq tushuncha berish, xususan, milliy musiqamizning o'ziga xos xususiyatlari, ularning mazmun-mohiyatida ilgari surilgan milliylik g'oyalari to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, o'tmishda xalqimiz tomonidan kuylab kelingan folklor qo'shiqlarini ijro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini boyitish va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat ekanligini aytish mumkin.

Musiq ta'limida folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosini boyitish beqiyosdir. Zero, folklor qo'shiqlarining mazmun-mohiyatida, birinchi navbatda, shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy– ahloqiy qarashlar, o'ziga xos milliy g'oya, tafakkurni boyituvchi mazmundorlik mujassamlashgan bo'lib muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Folklor qo'shiqlari shunisi bilan ahamiyatliki, ular mazmunida yoshi ulug'lar, ota-onalarning hurmatlarini saqlash, qarindosh–urug', qo'ni- qo'shnilar, do'stlar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik bilan yondashish, mehr– oqibat ko'rsatish, quvonchu tashvishlariga yaqindan turib sherik bo'lish, dillariga ozor yetkazmaslik kabi g'oyalar ilgari surilgan. Ayrim qo'shiqlarning hazil-mutoyiba shaklida kuylanishi zamirida esa dehqonning sifatli mehnat qilishi va natijada mo'l hosil olish mumkinligi ifodalanadi. Shunday qo'shiqqa misol "Oshpaz qo'shig'ini" aytish mumkin. Bu qo'shiq haqida professor O'.Toshmatov quyidagicha izoh beradi: "Odatda, mehnat jarayonida tushlik cho'zilib ketmasligi uchun yegulik bevosita dalaga keltirilgan. Bu qo'shiqda oshpaz ayol va dehqonlarning hazil-mutoyibasi, o'zaro tanqidlari orqali yerni haydash, don sepsish jarayonlari tasvirlanadi. Dehqonlarning qorinlari ochligidan shikoyatlariga javob sifatida oshpaz ayolning yerni chuqurroq, haydash, donni sifatliroq sepsish lozimligini uqtirishi, mehnatda sabr-qanoat va sifat hosilning takdirini belgilashi kuylanadi. Qushiq, sozandalar ansambli jo'rligida yakkaxon (oshpaz ayol) va erkaklar guruhi (dehqonlar) aytishuvi shaklida ijro etiladi". Darhaqiqat, muallif mazkur qo'shiq haqida juda to'g'ri fikrni bayon etgan. Qo'shiqning birinchi bandi chaqiriq,

harakatga undash ma'nosinida ifodalanganligi bilan o'ziga xos ma'no, mazmun va xususiyatga egadir.

Ma'lumki, qadimgi ajdodlarimiz ob-havo o'zgarishlarini dov- daraxtlarning holatiga, hayvon va parrandalarning xulq-atvoriga qarab aniqlashga harakat qilgan. Masalan, yog'ingarchilik me'yorini turnaning baland yoki past uchishiga qarab aniqlagan, ob-havoning issiq yoki salqin kelishini esa turnalarning qishlagani qolish yoki qolmasligiga qarab aytib bera olganlar. Bu jihatlarni "Turna keldi" qo'shig'ida ko'ramiz:

Turna desam, turimli, Turna o'zi ko'rumli,
Kentalaga qo'nimli. Usti qora, bo'yni — oq.
Turnalar uchsa pastlab, Turna uchsa balandlab,
Rizqing kelar unumli. Yil keladi, qurumsoq.
Turna tillo tarozi, Obu-havoga qozi.
Turna qolsa yurtingga, Salqin keladi yozi.

Qo'shiq musiqa cholg'ularisiz ijro etilsa-da, ijro davomida turnalarning sayrashiga takdid qiluvchi tovushlar sadolanib turadi.

Folklor qo'shiqlari so'z va ohangning o'zaro uyg'unlashuvi bilan mchiroyli va yoqimli ijro etiladi. So'z va ohang yordamida ifoda etilgan o'git, pand-nasihahat shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi va tez qabul qilinadi. Folklor qo'shiqlarining so'zi va ohangi unchalik murakkab emasligi barchaga ma'lum. Shu bois qo'shiqning mazmun-mohiyatini anglash, so'zning ifodaviy vositasi, mazmunini oson tushunish shaxsni estetik his-tuyg'ularini tarbiyalashga, voyelikka nisbatan mas'uliyatli yondashuv ko'nikmalarini hosil qiladi. Shu o'rinda haqli savollar tug'iladi, ya'ni, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining folklor qo'shiqlari haqidagi bilimi qay darajada?, ular musiqa darslari jarayonida qaysi folklor qo'shiqlarini kuylamoqda?, ularning folklor qo'shiqlarigi nisbatan qiziqishi qanday?, musiqa darsligida folklor qo'shiqlari bo'yicha materiallar yetarlicha berilganmi?. Tabiiyki, bu savollarga atroflicha javob olish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Lekin aytish mumkinki folklor qo'shiqlarini maktab o'quvchilariga o'rgatishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Kamchiliklar o'rnini to'ldirib borish uchun:

- folklor qo'shiqlari namunalarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqiy ta'lim-tarbiyaga tizimiga ko'proq kiritish;
- tarbiyaviy ahamiyat katta bo'lgan folklor qo'shiqlarini nota yozuvli namunalarini alohida to'plam shaklida chop ettirish;
- folklor qo'shiqlarining taniqli hofizlar, xonandalar, ijodiy dastalar ijro etgan audio yozuvlarini musiqiy ta'lim jarayonini keng tadbiq etish;
- maktab o'quvchilari folklor qo'shiqlari, maqomlarni o'rganishni uchun maxsus to'garaklar tashkil etish;
- Oliy ta'lim tizimi musiqa ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga folklor qo'shiqlari fanini kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy ijrochilik namunalari sifatida xalq o'rtasida keng tarqalgan, abadiy voqelikka mansub ijod va san'at deb baholanayotgan folklor qo'shiqlaridan yoshlar ta'lim-tarbiyasida keng foydalanish maqsada muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshmatov O'. Folklor qo'shiqlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2003. – 134 b.
2. Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. (O'quv qo'llanma). T.: "Fan", 2008. – 293 b.

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйилладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
12. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
13. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
14. Nurullayev F.G. The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May 2022.
15. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

17. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
21. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
23. Nurillaev Farrukh Gaybullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
27. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.